


**“TASDIQLAYMAN”**  
**O‘zbekiston Respublikasi**  
**Prezidenti huzuridagi Statistika**  
**agentligi direktori o‘rinbosari**

  
**Z. Ziyayev**  
2024-y. “28” *iyul*

## INTERAKTIV XIZMATINING REGLAMENTI

### KORXONA VA TASHKILOTLAR TO‘G‘RISIDA MA‘LUMOT OLIISH

#### 1. Xizmatning ta‘rifi (pasport)

##### 1.1. Xizmat nomi

Korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida ma‘lumot olish.

##### 1.2. Xizmat natijasi

So‘ralayotgan yuridik shaxsning STIRini kiritib, Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri (KTYADR) ma‘lumot bazasidan ochiq axborotlarni bepul olish.

##### 1.3. Xizmat ko‘rsatish organlari va blankalarni olish joylari

Statistika agentligining rasmiy sayti [www.stat.uz](http://www.stat.uz).

##### 1.4. Huquqiy asoslar

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-sentabrdagi “Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini yuritish va uning asosida davlat xizmatini ko‘rsatishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 539-son qarori.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining 2014-yil 30-maydagi “Yuridik shaxslarni hisobga olish va identifikatsiya qilishni avtomatlashtirilgan axborot tizimi “Reg-System”da ishlash tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomani tasdiqlash haqida”gi 3-mb-son qarori (ro‘yxat raqami 2594, 2014-yil 12-iyun).

##### 1.4. Xizmat qabul qiluvchilari

Jismoniy va yuridik shaxslar.

##### 1.5. So‘rov berish muddatlari

So‘rov berish muddati o‘rnatilmagan.

##### 1.6. Bajarilish muddati

Statistika agentligi rasmiy sayti [www.stat.uz](http://www.stat.uz) orqali real vaqt rejimida.

Oʻrnatilmagan.

### **1.7. Tasdiq berilish muddati**

## **2. Xizmat qabul qiluvchilarini habardor qilish**

### **2.1. Axborot tarkibi va hajmi**

KTYADRdagi korxonalar va tashkilotlar toʻgʻrisidagi barchaning foydalanishi uchun ochiq boʻlgan maʼlumotlar:

- roʻyxatdan oʻtkazuvchi organ
- davlat roʻyxatidan oʻtkazilgan sana
- davlat roʻyxatidan oʻtkazilgan raqami
- yuridik shaxsning nomi
- tashkiliy-huquqiy shakli
- IFUT kodi (amalga oshirilayotgan faoliyat turi)
- DBIBT kodi (idoraviy mansublik kodi)
- kichik tadbirkorlik subyektlariga mansubligi
- faollik holati
- ustav fondi
- taʼsischilar va ularning ustav fondidagi ulushi haqida maʼlumotlar (aksiyadorlik jamiyatlari bundan mustasno)
- aloqa maʼlumotlari (elektron pochta manzili, aloqa telefoni, MHOBT kodi, joylashgan yeri (pochta manzili))
- rahbari (soliq organlari maʼlumotlari asosida)

### **2.2. Katta miqyosda xabardor qilish**

Oʻrnatilmagan.

### **2.3. Soʻrov boʻyicha xabardor qilish**

Statistika agentligi rasmiy sayti [www.stat.uz](http://www.stat.uz) orqali real vaqt rejimida.

### **2.4. Xizmat koʻrsatish joyi haqida xabardor qilish**

Oʻzbekiston Respublikasi, Toshkent shahar, Mirzo-Ulugʻbek tumani, 100192, Mustaqillik shoh koʻchasi 63.

### **2.5. Foydalaniladigan hujjatlar blanklari (shakllar)**

Oʻrnatilmagan

## **3. Xizmat koʻrsatish**

### **3.1. Ish vaqti**

Statistika agentligi rasmiy sayti [www.stat.uz](http://www.stat.uz) orqali real vaqt rejimida.

### **3.2. Kutish shartlari**

Oʻrnatilmagan.

#### **4. Xizmat ko'rsatish tartibi**

##### **4.1. Shart bo'lgan hujjatlar**

Talab etilmaydi.

##### **4.2. Xizmat haqi**

Xizmat bepul amalga oshiriladi.

##### **4.3. Interaktiv xizmatining ko'rsatilish bosqichlari**

Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi ochiq ma'lumotlarni olish uchun [www.stat.uz](http://www.stat.uz) saytiga kirish lozim. O'ng tarafdagi "Interaktiv xizmatlar" menyusidan "Korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot" bo'limini tanlash kerak. So'ngra so'ralayotgan yuridik shaxsning STIRini kiritish lozim.

##### **4.4. Interaktiv xizmatini ko'rsatishda idoraviy ichki tartiblar**

O'rnatilmagan.

##### **4.5. Rad etish asosi**

O'rnatilmagan.

#### **5. Sifat ta'minoti**

##### **5.1. Sifat parametrlari**

Xizmat ko'rsatish sifati taqdim etilayotgan xizmatlar uchun o'rnatilgan tartibga muvofiq.

##### **5.2. Sifatsiz xizmatga shikoyat**

Shikoyat, o'rnatilgan tartibda statistika organlariga yozma murojaat orqali yoki Statistika qo'mitasining rasmiy saytidagi qayta aloqa shakli orqali amalga oshiriladi.



**5.3. Korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot olish bo'yicha  
interaktiv xizmatini ko'rsatish sxemasi**

Bosqichlar	Subyektlar	Tadbirlar	Bajarish muddatlari
1-bosqich	Murojaatchi (yuridik yoki jismoniy shaxs)	Statistika agentligining rasmiy <a href="http://www.stat.uz">www.stat.uz</a> saytiga kiriladi.	O'z xohishiga ko'ra
2-bosqich	Murojaatchi (yuridik yoki jismoniy shaxs)	“Interaktiv xizmatlar” menyusidan “Korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot” bo'limi tanlanadi.	O'z xohishiga ko'ra
3-bosqich	Murojaatchi (yuridik yoki jismoniy shaxs)	So'ralayotgan yuridik shaxsning STIRi kiritiladi.	O'z xohishiga ko'ra
4-bosqich	Statistika agentligi	KTYADRdagi korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi barchaning foydalanishi uchun ochiq bo'lgan ma'lumotlar taqdim etiladi.	Real vaqt rejimida